

Qarshi davlat universitetida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan “ 9-dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Aksilkorrupsiya oyligi”doirasida o‘tkazilgan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri
BAYONNOMASI

20.11.2025-yil

Qarshi shahri

Raislik qiluvchi: Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Ismatov

Taklif etilgan mutaxassislar:

Qarshqadaryo viloyati Adolat SDP Kengashining bosh mutaxassisi D.Choriyeva, Qashqadaryo viloyati Prokuraturasi Ijtimoiy-iqtisodiy qonunchilik sohasida nazorat bo‘limi katta prokurori kapitan B.Bozorov, Qarshi davlat universiteti bosh yuristi S.Azizov.

Qatnashdilar:

Universitet Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” bo‘limi bosh mutaxassislari Sh.Axmedov va N.Srajidinova, Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i Sh.Akramov, Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi uslubchisi S. Vaxobov, 10 nafar professor-o‘qituvchilar, 6 nafar tyutorlar, 220 nafar talabalar va matbuot xizmati vakillari

KUN TARTIBI:


- 1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va mazmuni mohiyati.**
- 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" bo'limi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, oliy ta'lim tizimida korrupsion holatlarning oldini olish, universitet faoliyatining ochiqqligini, shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar taqdimoti.**
- 3. “9-dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Aksilkorrupsiya oyligi” doirasida talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarni taqdirlash.**

Raislik qiluvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Ismatov yig‘ilishni ochib, yig‘ilishda ishtirok etayotganlarni hamda kun tartibidagi masalalar bilan yig‘ilish qatnashchilarini tanishtirdi va kun tartibidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish

to'g'risida"gi Qonuni va mazmuni mohiyati tushunchalari yuzasidan Qashqadaryo viloyati Adolat SDP Kengashining bosh mutaxassisi D.Choriyevaga so'zni berdi:

“Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish hamda bartaraf etish, ushbu illatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri, uning oldini olishda samarali mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu sohada yuqori samaradorlikka erishish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Jamiyatimizda korrupsiya balosi o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'layotganligi, bu yovuz illatning oldini olmasak, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmasligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaktsinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”. Korrupsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish uchun “korrupsioner” va korrupsiyaga shart-sharoit yaratuvchi omillarni yo'qotish, korrupsiyaning oldini olish yo'nalishlarida sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunda bu illatga qarshi kurashning huquqiy mexanizmi yaratilgan bo'lib, u davlat va jamiyat taqdiri, xalq kelajagiga, qolaversa, har bir fuqaroga daxldor bo'lgan muhim normativ-huquqiy hujjat ham hisoblanadi. Ushbu qonun asosida respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoralararo hamkorlikning tashkil etilishi natijasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimidagi bir-birining funksiyasini takrorlash kabi salbiy hodisalarga barham berish ko'zda tutildi deb”, tushunchalar berdi.



Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Prokuraturasi Ijtimoiy-iqtisodiy qonunchilik sohasida nazorat bo'limi katta prokurori kapitan B.Bozorov savol-javoblar jarayonida mamlakatimizning tashkilot va korxonalarda o'z Nizomida belgilangan ya'ni davlat xizmatchilari Nizom hamda ichki tartib qoidalarini asosida yurish-turishi borasida hamda Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarga oid immunitetni shakllantirish voyaga yetmaganlarning qilgan qilmishlari hamda oqibatda bilib-bilmay yondashuvlari va bu kabi qilmishlari ma'muriy yoki jinoyat alomatlarini berish mumkinliklari haqida hamda ma'muriy, fuqarolik va jinoyat –protsessual kodekslardagi tegishli moddalar haqida tushuncha hamda talaba-yoshlarni o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan tushuntirishlar berdi.



Tadbirning yakunida Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan " 9- dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan universitetda "Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida talab-yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "“Korrupsiyasiz ta’lim – yorug‘ kelajak kafolati” mavzusida “Eng yaxshi insho” nominatsiyasi “ Ta’limda adolat - jamiyatda taraqqiyot” shiori ostida "Eng yaxshi esselar" va “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” nominatsiyasi bo'yicha tanlovlarining hamda “Biz-Yangi O‘zbekiston avlodmiz! Korrupsiyaga o‘rin yo‘q!” mavzusida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid “Antikorrupsiya bilimdoni” nomenatsiyasi bo'yicha bilimlar bellashuvininng universitet bosqichida g'oliblar va sovridonlarni e'lon qilindi va taqdirlandilar hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan " 9- dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan universitetda "Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida talab-yoshlar o'rtasida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida chelenj o'tkazildi.

Raislik qiluvchi:

X. Ismatov

Yig'ilish kotibi:

N. Srajidinova